

**QOQIO'TDOSHLAR (MURAKKABGULDOSHLAR) OILASI VA TURKUMLARINI
QISQACHA TASNIFI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11413015>

Abdullayev Salmonbek Murodali o'g'li

TerDU Tabiiy fanlar fakulteti biologiya ta'lim yo'nalishi 3 -kurs talabasi

Soatova Shoxsanam Lolaboy qizi

TerDU Tabiiy fanlar fakulteti biologiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Anotatsiya: *Bu oila gulli o'simliklar ichida eng kattasi hisoblanadi. U deyarli hamma qitalarda va turli-tuman ekologik sharoitlarda o'sadigan 920 turkumga mansub 19 000 turi o'z ichiga oladi. O'zbekistonda bo'yimodaron turkumiga oid 5 ta tur o'simlik o'sadi. Bularning hammasi ham dorivor o'simliklar hisoblanadi.*

Shuvoq turkumiga mansub o'simliklar chorvachilikda o'ziga xos o'rinni egallaydi.

O'zbekistonda shuvoqning 39 turi uchraydi

Kalit so'zlar: *Kosachabarg, toj-barg va changchilar, Mrzacho'l, Malikcho'l O'rta-cho'l. Qarshi cho'li, Konimex cho'li va Qizilqum, Mingyaproq bo'yimodaron, Oq shuvoq (oq jusan), Turon shuvog'i (qora jusan), yov-shan shuvoq.*

КРАТКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ СЕМЕЙСТВА И РОДОВ СЕДУМОВ

Абдуллаев – сын Салмонбека Мурадали

ТерДУ Факультет естественных наук, студент 3 курса биологического образования

Соатова — дочь Шохсанам Лолабой.

ТерДУ Факультет естественных наук, студент 3 курса биологического образования

Аннотация: *Семейство Ву — самое крупное из цветковых растений. Он включает 19 000 видов, относящихся к 920 родам, произрастающим практически на всех континентах и в различных природных условиях. В Узбекистане произрастают 5 видов растений, относящихся к семейству высокотравных. Все это лекарственные растения. Растения семейства полынных занимают особое место в животноводстве. В Узбекистане 39 видов полыни.*

Ключевые слова: *Косачабарг, Таджбарг и Чангчилар, Mrзачол, Маликчол Ортачол. Пустыня Карши, пустыня Конимех и Кызылқум, Мингяпрок боймодаран, Белая полынь (полынь белая), Туранская полынь (черная полынь), Уовшанская полынь*

A BRIEF CLASSIFICATION OF THE FAMILY AND GENERA OF SEDUMS

Abdullayev Salmonbek is the son of Muradali

TerDU Faculty of Natural Sciences, 3rd year student of biology education

Soatova Shoxsanam the daughter of Lolaboy

TerDU Faculty of Natural Sciences, 2nd year student of biology education

Abstract: *The Wu family is the largest of the flowering plants. It includes 19,000 species belonging to 920 genera that grow on almost all continents and in various environmental conditions. In Uzbekistan, there are 5 types of plants belonging to the family of tall grasses. All these are medicinal plants. Plants belonging to the wormwood family occupy a special place in animal husbandry. There are 39 types of wormwood in Uzbekistan*

Key words: *Kosachabarg, tajbarg and changchilar, Mrzachol, Malikchol Ortachol. Karshi desert, Konimekh desert and Kyzylkum, Mingyaproq boimodaran, White wormwood (white wormwood), Turan wormwood (black wormwood), Uovshan wormwood.*

KIRISH.

Bu oila gulli o'simliklar ichida eng kattasi hisoblanadi. U deyarli hamma qit'alarda va turli-tuman ekologik sharoitlarda o'sadigan 920 turkumga mansub 19 000 tami o'z ichiga oladi. O'zbekistonda bu oilaga mansub 137 turkumga oid 597 tur o'simlik o'sadi.

Qoqio'tdoshlarning ko'p turlari bir yillik va ko'p yillik o'tlar bo'lib, ularning juda kam qismini chala butalar tashkil etadi. Faqat tropik mintaqalarda unga oid buta, liana va daraxtlar o'sadi. Bu oila vakillarining barglari oddiy, yonbargsiz, ildiz bo'g'zida to'planib yoki poyada asosan ketma-ket, ba'zan qarama-qarshi yoki halqa bo'lib joylashgan. Barg yaprog'i butun, ba'zan toq patsimon bo'lingan, shakli har xil. Gul-lari to'pgulda joylashgan.

Qoqio'tdoshlarning muhim belgisi to'pgullarining savatcha shaklida bo'lishidir. Savatcha sirtidan bir yoki bir necha qator turli shakldagi o'rama bargchalar bilan qoplangan, ichida mayda gullar o'rnashgan. Savatcha bir gulli yoki ko'p gulli bo'lishi mumkin. Bunday to'pgul ko'zga bitta gulga o'xshab ko'rinadi. Haqiqatda esa bu bitta gul emas, ko'p gul-dan, ba'zan esa bir necha xil guldan tashkil topgan to'p-guldir.

Savatchadagi gul o'rni yassi, bo'rtgan yoki cho'kkan bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra to'pgulning shakli sharsimon, yarim sharsimon, tuxumsimon, konussimon yoki likobcha-simon bo'ladi. Qoqio'tdoshlarning ko'pchiligida savatchalar o'z navbatida shingil, ro'vak, qalqon va boshcha kabi to'pgul-larga o'mashib murakkab to'pgul hosil qiladi.

Qoqio'tdoshlarning guli 4 halqali, ikki jinsli, bir qismi ayrim jinsli yoki butunlay jinsiz bo'ladi. Kosachabarg, toj-barg va changchilari 5 tadan. Kosachasi har xil tuzilgan, juda qisqarib ketgan, yashil bargchali bo'lmaydi. Ba'zi vakilari-da kosachasi pardasimon, 5 tishli o'simta shaklida. Ammo ko'pchiligida tishchalari o'rnida oddiy yoki patsimon tuklar yoki qiltanoqlar hosil bo'ladi. Mazkur o'simtalar mevada qolib, urug'larning shamol vositasida

tarqalishida xizmat qi-luvchi uchmalarga yoki kokilarga aylanadi. Gultoji tutash toj bargli, to'g'ri yoki qiyshiq, ko'pincha ikkala xil tojli gullar bir to'pgulda joylashadi. Qoqio'tdoshlar gulining umumiy formulasi quyidagicha: KOG(5)Ch(5)U(2). Mevasi shamol yoki hayvonlar yordamida tarqalishga mos-lashgan bir urug'li donchadir.

Mingyaproq bo'yimodaron (boshog'riqo't)ni ko'pchilik taniydi. U bo'yimodaron turkumiga mansub, o'rmalovchi il-dizpoyali ko'p yillik o'tdir. Tog' yonbag'irlarida va etaklarida, soylarda, yo'l yoqala-rida o'sadi. Poyasi bir nechta. Barglari 3 karra patsimon qir-qilgan, bo'laklari juda ingichka ipsimon. Ildiz bo'g'izidagi va gulsiz poyasidagi barglari uzun bandli, gulli poyadagilari esa o'troq. U iyundan boshlab gullaydi.

To'pguli savatcha, lekin ular o'z naybatida poya uchidagi qalqonga o'mashib, murakkab to'pgul hosil qiladi. Savatcha-lari mayda. O'rama bargchalari bir necha qator o'rnashgan, chetlari hoshiyali, mayda.

Mingyaproq bo'yimodaron gulining tuzilishi bilan tani-shish uchun, to'pguldan bir dona savatchani olib lupa ostiga qo'yib ko'riladi. Savatchaning chetidagi gullar soxta tilsimon gullar bo'lib, soni 4-5 ta, rangi och sariq, och qizil yoki qip-qizil. Savatcha o'rtasidagi gullar sariq, ikki jinsli, nay-simon. Soxta tilsimon gul naysimon gulga qaraganda ancha yirik. Gulining o'ziga xos hidi bor. U hasharotlar yordamida changlanadi. Oldingi ochilgan gullardan iyulda meva hosil bo'ladi. Bo'yimodaronning mevasi bir urug'li doncha.

Mingyaproq bo'yimodaron dorivor o'simlik. Uning bargi, to'pguli va gullayotgan poyasining uchidan tayyorlangan damlama va suyuq ekstraktlar ilmiy tibbiyotda oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda hamda ichki va sirtqi qon ketishlami to'xtatishda ishlatiladi.

O'zbekistonda bo'yimodaron turkumiga oid 5 ta tur o'sim-lik o'sadi. Bularning hammasi ham dorivor o'simliklar hisoblanadi.

Shuvoq turkumiga mansub o'simliklar chorvachilikda o'ziga xos o'rinni egallaydi.

O'zbekistonda shuvoqning 39 turi uchraydi. Bular bir yil-lik hamda ko'p yillik o'tlar va chala butalardir. Barglari od-diy, uchga bo'lingan yoki patsimon bo'lingan. Barg bo'laklari ingichka - ipsimon. Bu turkum vakillari orasida tog'-larda, adirlarda, cho'llarda, to'qaylarda o'sadigan va hatto begona o'tlar qatori yo'l yoqalarida, ariq bo'ylarida, mar-zalarda o'sadigan turlar ham bor. Oq shuvoq (oq jusan), Turon shuvog'i (qora jusan), yov-shan shuvoq kabi turlari Mirzacho'l, Malikcho'l O'rta-cho'l. Qarshi cho'li, Konimex cho'li va Qizilqum kabi qorako'lchili yaylovlarida (o'tloqlarida) poyonsiz shuvoq-zorlarni hosil qiladi va bu o'tloqlarning asosiy oziqbop o'simliklaridan hisoblanadi. Shuvoqning bu turlari chala butalar bo'lib, poyasining pastki qismi yag'ochlanadi va bu qismda qishloychi kurtaklar saqlanib qoladi. Saqlangan qishloychi kurtaklar martning boshlarida uyg'onadi. Va iliq, sernam sharoitda cho'ldagi boshqa o'tlar bilan bir qatorda tez o'sadi. Yozning boshlaridayoq cho'ldagi efemer va boshqa ko'pchilik o'tlar quriydi, lekin shuvoqlar faqat o'sishdan nisbatan to'xtaydi. Yozning quruq yajazirama kunlarida shu-yoqda «yozgi tinim» dayri boshlanadi. Bunda organizmdagi hayotiy jarayonlar juda susayadi. Barglarining bir qismi to'kiladi, qolganlari so'linqirab qoladi. Bu ularning cho'lning issiq va quruq, suysiz sharoitida yashashga moslanishidir. Kuz kelgach, cho'lda kechasi ancha salqin bo'ladi,

shudring tu-shadi, ba'zan yomg'ir yog'adi, namdan bahramand bo'lgan shuvoq yana o'sa boshlaydi, yangi barglar chiqaradi, novdalari uzayadi. Sentabrning ikkinchi yarmida gullaydi. Shu-voq sayatchalari ro'vak xilidagi to'pgulga o'rnashgan. Sayat-chalarining har birida 5-7 faqat ikki jinsli tilsimon gul bo'ladi. Meyasi oktabrning oxiri yoki noyabrning boshida pishadi va to'kiladi. Cho'l o'tloqlaridagi shuvoqlar qorako'l qo'ylari va tuya-larning kuzgi hamda qishki asosiy ozig'idir. Cho'lda qishloy, ko'pincha shuyog'i ko'p o'tloqlarda o'tkaziladi. Shu Yo'qlarni o'rib qish uchun hashak g'amlanadi.

Shuyoqlar faqat qimmatli em-xashak o'simligigina bo'lib qolmay, balki bebaho shifobaxsh o'simlik hamdir. Bunga misol qilib, Ermon shuyog'ini ko'rsatsa bo'ladi. Uning bar-gi, poyasi va to'pgulidan tayyorlangan dorilar ilmiy tabobatda kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak Qoqio'tdoshlar oilasi turlar soni ko'p bo'lsada, ularning ichida endem turlari, shu bilan birga dorivor turlari juda ko'p. Oila haqida chuqur o'rganib, keng targ'ib qilsa bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zME birinchi jild, Toshkent 2000-yil .
2. Alimbaeva P.K. Goncharova. A.V. Qirg'izistonning dorivor o'simliklari 1971-yil, 98-bet.
3. Dorivor o'simliklarning hududlar va resuruslar atlas M:GUGK, 1983-y, 340- bet.
4. Nasov A.M. Dorivor o'simliklar .M:EKSMO-Press, 2000-y, 350-b.
5. O'simlik preperatlari Abu Ali ibn Sino (Avitsena) 11- qo'llanma, tahrirlangan , Sh.B. Irgasheva, Toshkent -2003, 457-b.
6. Botanika – farmakognostik lug'ati, Ed. Bilinova K.F.M : Oliy maktab 1990-y, 272-b.
7. .www.ipni.com(International plants Name Index).
8. .www.powo.com(Plants of the World Online)